

**Jismoniy tarbiya va sport
bo‘yicha mutaxassislarni qayta
tayyorlash va malakasini oshirish
instituti
Farg‘ona filiali**

**“Bolalar psixologiyasi”
moduli**

**1-Mavzu:
BOLALAR PSIXIKASI: BILISH
JARAYONLARI, HISSIY
HOLATLARI VA INDIVIDUAL
TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Katta o‘qituvchi: Kurbonova Shaxnoza Nimadovna



REJA:



- 1. Bolalar psixologiyasi modulining predmeti, maqsadi va vazifalari.*
- 2. Bolalar psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.*
- 3. Bola psixik taraqqiyoti qonuniyatları.*
- 4. Maktabgacha yoshdagи bolalarda bilish jarayonlarining shakllanishi.*
- 5. Hissiy zo‘riqishlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning namoyon bo‘lishi.*
- 6. Maktabgacha yoshdagи bolalarga xos individual psixologik xususiyat (temperament, xarakter, qobiliyat)lar.*

Bolalar psixologiasi

Tayanch iboralar: bola, maktabgacha yosh davri, psixologiya, psixika, bilish jarayonlari, hissiy holatlar, tipologik xususiyatlar, psixik qonuniyatlar



BOLALAR PSIXOLOGIYASI MODULINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Bolalar psixologiyasi – psixologiya fanining alohida tarmog‘i bo‘lib, u turli yosh davrlari bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, shuningdek, bir yosh bosqichidan boshqasiga o‘tish qonuniyatlarini o‘rganadi.




Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e’tibori tug‘ilgandan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongning qanday rivojlanishiga qaratilgan.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy kategoriyalari




Taraqqiyot — narsa yoki hodisalarning vaqt o‘tishi bilan miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishi natijasida yuqoriqoq darajaga ko‘tarilishi.



Psixika taraqqiyoti — tug‘ilgandan boshlab yosh davrlari o‘tishi bilan psixika faoliyatining takomillashishidir. Psixik taraqqiyot bolaning insoniyat tarixi davomida to‘plagan bilim va tajribalarni o‘zlashtirishi hamda shaxs sifatida shakllanib borishi jarayonidan iborat.



Bolalik — ontogenezning dastlabki davrlarini belgilash uchun (tug‘ilgandan o‘smirlikkacha bo‘lgan davrni belgilash uchun) qo‘llanadigan tushuncha.



Yosh – individ psixik taraqqiyotining aniq vaqt chegarasiga ega bo‘lgan bosqichi. Psixik taraqqiyotning har bir bosqichida individda muayyan fiziologik va psixologik o‘zgarishlar kuzatiladi. Odatda psixologiyada xronologik va psixologik yosh ajratiladi.

Bolalar psixologiyasi fanining predmeti

Bolalar psixologiyasi fanining **predmeti** tarixan o‘zgarib borgan. Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining predmeti ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatları, yosh davrlari, bir yosh davridan boshqasiga o‘tish sabablarini aniqlashdan iborat.

Hozirgi kunda bolalar psixologiyasi fani **predmetining** kengayib borishi kuzatilmoqueada. Bu hodisa bolaning homila davridagi rivojlanishini tobora chuqurroq o‘rganish natijasida ro‘y bermoqda.



BOLALAR PSIXOLOGIYASI FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Falsafa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan. Falsafa qonunlari boshqa fanlarning, shu jumladan, bolalar psixologiyasi fanining qonunlari bo‘lib hisoblanadi.

Pedagogika — ta’lim va tarbiya qonunlari, metod va usullari haqidagi fan. U ta’lim va tarbiyaning maqsad va vazifalarini, ularning shaxs taraqqiyoti va jamiyat hayotidagi o‘rnini ochib beradi.

Tibbiyot – inson salomatligi va kasalliklari, kasalliklarning oldini olish va ularni davolash, shuningdek, salomatlikni mustahkamlash haqidagi fan. Tibbiyot va psixologiyaning o‘zaro hamkorligi natijasida psixosomatika — psixologik omillarning salomatlikka, kasalliklar kelib chiqishiga ta’sirini o‘rganadi. Bolalarda uchraydigan ko‘pgina kasalliklarning manbai psixologik xarakterga egadir.

BOLA PSIXIK TARAQQIYOTI QONUNIYATLARI

1. Turli yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni, ya’ni bolalarning idrokiga, sezgi-tuyg‘ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni o‘rganish.

3.Turli yoshdagi bolalarning rivojlanishiga xos bo‘lgan qonuniyatlarni o‘rganish.

2. Bolaning psixik taraqqiyotiga faol ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab berish.

4. Bola shaxsi va shaxsiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rganish.

5. Bolani maktab ta’limiga tayyorlash.


9.Ta’lim-tarbiya ishlarining psixologik mazmunini ochib berishdan iboratdir

6. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bolaning aqliy jarayonlarini faolla-shtirish.

7. Ta’lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol tafakkurini shakllantirish.

8. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning maxsus qobiliyatlarini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining shakllanishi



Maktabgacha yoshdagi bolalarga uni o‘rab turgan tashqi olamni va o‘z-o‘zini bilib olishga imkon beruvchi psixologik jarayonlarga **bilish jarayonlari** deyiladi.

Sezgilar, idrok, diqqat, xotira, xayol, tafakkur va nutq bilish jarayonlari hisoblanadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, xayol kabi bilish jarayonlari rivojlanishi jadal kechadi.

Bilish jarayonlari



Sezgi



Idrok



Xayol



Tafakkur



Nutq



Diqqat



Xotira

Hissiy zo‘riqishlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning namoyon bo‘lishi

Bola faoliyati atrof olamni va o‘zini bilishi, kattalar va tengdoshlar bilan bo‘lgan munosabat jarayonida xilma-xil emotsiya hamda hissiyotlarni o‘zidan o‘tkazadi. U atrofda ro‘y berayotgan hamda o‘zi qilayotgan narsalarga muayyan munosabatda bo‘ladi. Ana shu munosabat bolada ma’lum bir emotsiya va hissiyotlarni tug‘diradi.



Emotsiya va hissiyotlar ham voqelikni aks ettirishning o‘ziga xos shakli. U bolaning atrof olamga bo‘lgan munosabati, biror-bir ehtiyojning qondirilishi yoki qondirilmasligi tufayli vujudga keluvchi ichki kechinmalar-da namoyon bo‘ladi

1. Dastlab oddiy kechinmalarni ifodalovchi emot siyalar paydo bo‘ladi. Bu kechinmalar tabiiy ehtiyojlarning qondirilishiga bog‘liq ravishda v ujudga keladi(qondirilsa-ijobiy, qondirilmasa-salbiy)emotsiyalar vujudga keladi.

2. Emotsiyalarning rivojlanishi ularning kechinmalarining boyib borishi orqali ro‘y beradi. Bolada salbiy kechinmalar qo‘rquv, jahl, jirkanish, ijobiy kechinmalar shodlik, bola mehrining atrofdagilarga tovlanib ketishi

5. Emotsiya va hissiyotlarning rivojlanishi nutqning rivojlanishi bilan bog‘liq. Nutq yordamida bola o‘z hissiyotlari va emotsiyalarini anglaydi va boshqaradi. Nutqi orqali ma’lum bir tarzda o‘z kechinmalarini ifodalaydi

3. Bolalar hissiyotlarining rivojlanishi muayyan obyektga yo‘naltirilgan emotsiyalarning umumlashishi sifatida ro‘y beradi.

4. 3-yoshli betob bola uchun unga ukol qilgan hamshira “yomon xola” dir. Bunda bola o‘z emotsional holatining salbiy tavsifini bu holatning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan shaxsga ko‘chirib o‘tkazadi.

Shaxs – qaytarilmas, u o‘z sifatlari va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual-psixologik xususiyatlari majmui yotadi.




Individ – insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyyadir.
Individ-yangi tug‘ilgan chaqaloq

“Individuallik” – yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo‘lib, u konkret shaxsni boshqa bir konkret shaxsdan farqlovchi barcha o‘ziga xos xususiyatlar majmuini o‘z ichiga oladi

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xos individual psixologik xususiyat (temperament, xarakter, qobiliyat)lar

Qobiliyatlar-shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular shaxsning turli xil faoliyatdagi ko'rsat-kichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushun-tirib beradi



Temperament-insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, holatlar va insonlarning hatti-harakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyat-lari majmuidir

Xarakter-shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o'z-o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarni o'z ichiga oladi



*E'tiboringiz
uchun
rahmat!*

